

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANIDAN**  
**KURS ISHI YOZISH BO'YICHA KO'RSATMA**  
*(5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yonalishi*  
*III kurs talabalari uchun)*

**BUXORO- 2015**

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan kurs ishi yozish bo'yicha ko'rsatma.

Tuzuvchilar: S.S.Xodjayeva, M.M.Nigmatova. Buxoro davlat universiteti. 2015-yil

Mazkur metodik ko'rsatma boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan o'quv rejasida yozilishi lozim bo'lgan kurs ishlarining mavzulari, hamda uni bajarishga oid metodik tavsiyalar berilgan. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati ko'rsatilgan.

Mas'ul muharrir:

A.Hamroyev-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

Hasanova G.Q.-Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Tosheva Q.-Buxoro shahar pedagogika kolleji o'qituvchisi.

Sharipova M.G.-Buxoro shahar 14-son umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

## **KIRISH**

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan olib borilayotgan tub ijtimoiy islohotlarda ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyati davlatlari orasida mustahkam o'rin egallashi birinchi navbatda yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi. Jumladan, boshlang'ich ta'lim mutaxassislarinig o'rni beqiyosdir. Ushbu murakkab masalani ijobiy hal etilishida 5111700– «boshlang'ich ta'lim va sport» yo'nalishi talabalari uchun «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining o'qitilishi, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, milliy qadriyatlar asosida o'quvchi yoshlarni tarbiyalash, milliy istiqbol g'oyalarini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da odatdagi o'zlashtirish ta'limi asosan ta'lim mazmunini axborotlar, tushunchalar majmuini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarni, talabalarni amaliy o'quv ko'nikma masalalarini, mustaqil ijodiy sifatlarini, omilkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi uquvlarining juda kam rivojlantirilishi asoslab berilgan edi. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv-amaliy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ayrim amaliy misollar yechish yoki ayrim amaliy mashg'ulotlar yetarli emas. Talabalarnig bilish faoliyatlarini faollashtirish uchun ularda zamon, istiqbol talablari darajasida va amaliy, ijodiy ko'nikmalar hosil qilish uchun o'quv jarayoniga rang-barang amaliy-ijodiy ishlarni olib kirish taqozo qilinadi. Bu ishni samarali hal qilish yo'llaridan biri dastur talablarilariga mos mavzularni ajratish, bu mavzularni mustaqil o'rganish shakllaridan biri kurs ishlarini tayorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur ko'rsatma bakalavriat yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, tarbiyaviy ishlar metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari, tarbiyaviy ishlarda tizimlilik, tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini baholash tamoyillari, maktabda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish metodikasi, tarbiyaviy jarayonini boshqarish tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tahlil etish, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash texnologiyasi, oilaviy tarbiyaning mazmuni, an'analari, metod va

vositalari, oila va maktabning o'zaro hamkorligi oilani pedagogik tomondan qo'llab-quvvatlash, madaniy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ishini tashkil etish, sinf rahbari ishining mazmuni va metodlari, "Kamolot" yoshlar harakatini uyushtirish metodikasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida turli o'yinlar, tanlovlar, musobaqa va boshqa tadbirlarni tashkil etish metodikasi kabi masalalar yuzsidan mustaqil izlanishga, darslar jarayonida olgan nazariy bilimlarini ijodiy tadbiq etishga o'rgatadi.

### **Kurs ishini yozishning maqsadi va vazifalari**

**Maqsad** – kurs ishining maqsadi talablarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir. Mustaqil respublikamizda iqtisodiy, ma'naviy siyosiy madaniy rivojlanishi yo'lida buyuk ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga chuqur mustahkam bilim berish, mutaxassislarni jahon andozlariga javob beradigan, bozor iqtisodiy sharoitda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan yuksak ma'naviyatga xos bo'lgan qirralarni: poklik, hamkorlik, birodarlik, g'amxo'rlik, sabr-qanoat, saxiylik fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir.

**Vazifalar** – maktab hayotida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining va sinf rahbarining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. U maktabda juda muhim va ma'suliyatli qiyofadir. Ma'naviyat ishlari va sinf rahbari faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaraganda uni sinfining bosh tarbiyachisi, murabbiysi deyish mumkin, u o'z sinf jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o'qituvchilar bolalar tashkilotlari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog'lab, sinfdagi umumiy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi. Kurs ishi mazmuni shu kabi masalalarni mustaqil tadqiqot sifatida o'rganib, tahlil qilib asoslab berishdan iborat.

### **Kurs ishini bajarish haqida usuliy ko'rsatmalar**

O'quv rejasiga muvofiq tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar 5-jarayonda kurs ishi yozadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008-yil 7-mart 61-sonli buyrug'i va "Oliy ta'lim muassasalarida kurs loyihasini bajarish tartibi haqida"gi nizomi talablariga muvofiq kurs ishi bajariladi. Kurs ishini belgilangan muddatda bajarishga har bir talaba mas'uldir. Talaba dastur talablari asosida tuzilgan mavzulardan o'zini qiziqtirgan mavzu yuzasidan birini tanlab, ilmiy rahbar maslahatlari va ko'rsatmalari asosida kurs ishini tayorlaydi.

"Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fani yuzasidan kurs ishi yozish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

—Milliy mustaqillik g'oyalari, uning asosiy tushuncha va tamoyillari haqida; milliy g'oyaning davlatlar tarixiga ta'siri, zamonaviy sharoitda uning o'rni va roli haqida; shaxsni tarbiyalash asoslarini rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari haqida; tarbiyaning pedagogik asoslari; tarbiya jarayonining umumiy qonuniyatlari; tarbiyaviy jarayonning tizimi va tuzilishi, bilishi va tadbii qilishi; ta'lim-tarbiya va o'qitish nazariyalari; tarbiya texnologiyasini ***bilishi kerak***;

—Zamonaviy jamiyatda madaniyat, mamlakat ma'naviy hayotida din va uning o'rni; zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy faoliyatni faollashtirish metodlari; yosh pedagogik texnologiyasi tushunchalari, tarbiyaning psixopedagogik tamoyillari; Markaziy Osiyo va chet el allomalarini pedagogik qarashlarini o'quv tarbiyaviy jarayonida tahlil qilish va foydalanish; tarbiyaga yakka va differentsial yondashishning faol metodlari; o'rganilayotgan fanlar va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari; ta'lim- tarbiyani farq qilish xususiyatlari va ularning o'zaro bog'liqliklarini kursatish; tarbiyalash jarayonini idrok etish faoliyati, turi sifatida muhim belgilarni ajratish; o'zbek xalqi tajribasida tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini aniqlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

—Tarbiyaviy ishlar tizimi tavsifnomasi; maktabdagi ta'lim tizimida tarbiya ishlarining dolzarbligi; pedagog-tarbiyachilar faoliyatining maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayoni tavsifi; o'quv shaxsi bilan yakka tartibda ishlashga yondashuvning

metodlari; pedagogik jarayon va bolalar jamoasi; tarbiya jarayonida texnologiyalarning qo'llanilishi; ajdodlarimizning qimmatli meroslari haqida; umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi mustaqil dunyoqarashga ega va mustaqil fikrlovchi qilib tarbiyalash; har bir fuqaro anglab yetgan milliy g'oyani amalga oshirish; do'stlik, birgalikda mehnat qilish va dam olish ruhida tarbiyalash; milliy an'analardan foydalanish va rivojlantirish; o'quvchilar va talabalar ongida milliy g'oya va mustaqillik mafkurasini shakllantirish; maktab, litsey, kollej o'quvchilari, talaba yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash metodi ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## **I. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi.**

I. Kirish – bu yerda talaba 2 – 4 bet hajmda tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, uni hal etish vazifalari va istiqbolini ifoda etadi.

II. Nazariy qism: Tanlangan mavzuning nazariy asosini tegishli manbalardan foydalangan holda yoritadi. mAmaliy qism: Aniq maktabdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, tarbiyaviy soatlar yoki ilg'or pedagoglar ish tajribalari tahlil etadi.

III. Tavsiya: tahlil ma'lumotlari asosida aniqlangan kuchli va kuchsiz tomonlar aniq ko'rsatiladi. Kuchsiz tomonlarning sabablari aniqlanadi va uni ijobiy hal etishning aniq yo'llari tavsiya etiladi. Qisqacha xulosa beriladi

IV. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati ilova qilinishi shart.

V. Tadimot

## **Tavsiya etilgan kurs ishlarining ro'yxati.**

Kurs ishi mavzulari fanning mazmun mohiyatidan bog'liq holda beriladi. Kurs loyihasining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30 % ko'proq oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

2. Tarbiya ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon sifatida..

3. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi, tarbiyaviy ishlar jarayonini rivojlantirish yo'llari.
4. Tarbiyaviy ishlar va boshlang'ich sinf o'qutuvchisining o'ziga xos xususiyatlari va sifatlari.
5. Farzand tarbiyasiga doir foydali maslahatlar.
6. Tarbiyachilar faoliyatida milliy-ma'naviy qadriyatlar.
7. O'quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanish. .
8. O'quvchilar jamoasini shakllantirish uslubiyoti.
9. Tarbiyaviy ishlarda mehnat to'garaklarining ahamiyati.
10. Tarbiya jarayoni va tarbiya texnologiyalari.
11. Tarbiyaviy ishlar va milliy xarakterdagi o'yinlar.
12. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalash.
13. Insonparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari.
14. Shaxs rivojlanishida tarbiyaning roli.
15. Faoliyat – shaxs shakllanishining asosiy omili.
16. O'quvchi shaxsini rivojlantirish mazmuni.
17. Tarbiyaviy ishlar va iqtisodiy tarbiya.
18. Milliy tarbiyaning hozirgi kundagi ahamiyati.
19. O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim –tarbiya masalalari.
20. Ekologik tarbiya va tarbiyaviy ishlar.
21. Komil insonni tarbiyalashda nafosat tarbiyasi.

22. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat, his tuyg'ularini shakllantirish.
23. Maktabda mafkuraviy tarbiyani tashkil etish metodikasi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati va vazifalari.
24. Odobnoma darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalar.
25. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida jismoniy tarbiyanig ahamiyati.
26. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, kuzatish va tahlil etish metodikasi.
27. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish yo'llari
28. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash.
29. Al-Forobiyning axloqiy ta'limotida barkamol inson timsoli. Al-Forobiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, ta'lim-tarbiy rivoji va axloqiy ta'limotlar.
30. Tarbiyaviy ishlarda oila bilan maktabning o'zaro hamkorligi.
31. Boshlang'ich sinfda mehnatga o'rgatish. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.
32. Oila jamoasini jipslashtirish metodikasi.
33. Kichik maktab yoshdagi bolalarini tarbiyalashda o'zbek halq o'yinlarining ahamiyati.
34. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning roli.
35. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish usullari.
36. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda oila, matab, jamoatchilik hamkorligini tashkil etish metodikasi.

37. Kichik maktab yoshi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash.
38. «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlar va ularning yo'nalishlari.
40. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy pedagogik qarashlari
41. Boshlang'ich ta'limda do'stona munosabatni tashkil etish.
42. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.
43. Yosh avlodni tarbiyalashda At Termiziy ta'limotining o'rni
44. Hadislar vositasida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy
46. Sharq mutaffakirlarining g'oyalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya
47. Xalq urf-odatlarini orqali xalq urf-odatlarini mazmuni asosida o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish.
48. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish .
49. Ma'naviy barkamol insonni shakllanishida oilaning tutgan o'rni.
50. Oilada bola tarbiyasining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari.
51. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishning nazariy asoslari

**.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarining tarbiya ahamiyati.** Ma'naviyatni anglash. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. Ma'naviyat tushunchasining mazmun – mohiyati. Ma'naviy tahdidlar va ularga qarshi kurash omillari. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyillarining o'rni va ahamiyati. Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi. Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni. Erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish – dolzarb vazifa.

Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya. Inson qalbiga yo'l. Eng buyuk jasorat.

**2. Tarbiya ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon sifatida..** Tarbiya jarayonining umumiy tasnifi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari, tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya jarayonining ta'lim jarayoni bilan mushtarakligi. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixi. O'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixidan. Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi va Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari. Turkistonda jadidchilik harakati va talim tarbiya.

**3. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganish, tarbiyaviy ishlar jarayonini rivojlantirish yo'llari.** Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarni yo'naltirishga qaratilgan faoliyati. Sinf rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatleri. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlar jarayonini rivojlantirish yo'llari. Sinf rahbari faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar. Sinf jamoasini o'rganish va uning dasturini ishlab chiqish.

**4. Tarbiyaviy ishlar va boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'ziga xos xususiyatlari va sifatleri.** Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi mohiyati. O'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati, maqsadi va shakllari. O'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalari. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli. O'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiyaviy ishlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Mavzuli kechalar va ekskursiyalarning tarbiyaviy ishlardagi o'rni va roli

**5. Farzand tarbiyasiga doir foydali maslahatlar.** Chaqaloq tarbiyasi masalalari. Chaqaloqni avaylash va chiroyli ism qo'yish. Bolaning ruhiyati. Farzand ulg'aya boshlaganda....Xulq tarbiyasi. Farzand tarbiyasida pul bilan muloqot.

**6. Tarbiyachilar faoliyatida milliy-ma'naviy qadriyatlar.**

**7. O'quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mintalitet elementlaridan foydalanish.** O'zbek mentalitetlari asosida o'quvchi shaxsini faollashtirishning ilmiy nazariy asoslari. O'quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanish – pedagogik muammo sifatida. O'quvchi shaxsini faollashtirishning ruhiy-fiziologik, intellektual-ma'naviy jihatlari. Milliy mentalitetlari asosida o'quvchi shaxsini faollashtirishning amaliy asoslari. O'quvchi shaxsini milliy mentalitet elementlari asosida faollashtirishning mavjud ahvoli. Milliy mentalitet elementlari asosida o'quvchi shaxsini faollashtirishning shakl, metod va vositalari

**8. O'quvchilar jamoasini shakllantirish uslubiyoti.** Jamoa haqida umumiy tushuncha. Sinf jamoasi tuzilishining umumiy usuliyatlari. Sinf jamoasining bolalar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish shakl va uslublari. Jamoa va uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni. Jamoani shakllantirish bosqichlari. Jamoani tashkil etish va tarbiyalash yo'llari.

**9. Tarbiyaviy ishlarda mehnat to'garaklarining ahamiyati.** Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari. Tarbiyaviy ishlarning yo'nalishlari. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmunida to'garaklar faoliyati. Mehnat ta'limi darslarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar. To'garaklar ish rejalaridan namunalar.

**10. Tarbiya jarayoni va tarbiya texnologiyalari.** O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va jamiyatdagi o'rni. Ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlik mahoratini shakllanishida ilg'or pedagogik ijodkorlikning o'rni va ahamiyati. Ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbar faoliyatini tashkil etishda didaktika haqidagi bilimlarning ahamiyati. Pedagogik faoliyatda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari

**11. Tarbiyaviy ishlar va milliy xarakterdagi o'yinlar.** Bolalarning ma'naviy tasavvurlarini shakllantirishda milliy o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari. Xalq milliy o'yinlarining paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti. Milliy harakatli

o'yinlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim – tarbiya jarayonidir. Bolalarning kun tartibida milliy o'yinlardan foydalanish mazmuni, shakllari, metod va vositalari. O'zbek milliy xalq harakatli o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubiyati. Milliy harakatli o'yinlarni tanlash va ularni bolalar yoshiga mos holda o'tkazish.

## **12. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalash.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalashning nazariy asoslari. Tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishning tarixiy ijtimoiy asoslari. Tashkilotchilik qobiliyatlari va sifatlarining psixologik-pedagogik asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalashning mohiyati va mazmuni. O'qituvchilarda tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalashning mohiyati. O'qituvchilarning kasbiy vazifalari va pedagogik faoliyati ko'nikmalarining mazmuni.

**13. Insonparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari.** O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining talqini. Dars jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning samaradorlik darajasi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning tashkiliy metodik yo'nalishlari.

**14. Shaxs rivojlanishida tarbiyaning roli.** Shaxs shakllanishi haqida tushuncha. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamolotini shakllantirish. Tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mazmuni. Tarbiya jarayoning umumiy tasnifi va usullari. Tarbiya jarayoninig ta'lim jarayoni bilan mushtarakligi.

**15. Faoliyat – shaxs shakllanishining asosiy omili.** O'quvchi shaxsi tarbiya jarayoninig obykti va subyekti sifatida. Shaxs haqida tushuncha, shaxs tarbiyasi, kamoloti. Shaxsni rivojlantiruvchi asosiy omillar. Faoliyat va shaxs. Faoliyat va

uning shaxs shakllanishidagi roli. Umuminsoniy va milliy boyliklarning shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati.

**16. O'quvchi shaxsini rivojlantirish mazmuni.** O'quvchilari shaxsini rivojlantirishning nazariy asoslari. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchi shaxsini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning axloqiy imkoniyatlari. O'quvchilari shaxsini rivojlantirish mazmuni. O'quvchilari shaxsini rivojlantirish tarbiyaning o'rnini. O'quvchilari shaxsini rivojlantirishda foydalanuvchi jismoniy mashqlar.

**17. Tarbiyaviy ishlar va iqtisodiy tarbiya.** Maktabdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni. Tarbiya va iqtisodiy tarbiya to'g'risida tushuncha. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tarbiyaning shakli va yo'llari. Bollarga iqtisodiy tarbiya berish mazmuni. Tarbiyaviy ishlar jarayonida iqtisodiy tarbiya berish. Ota-onalarga iqtisodiy tarbiyaga oid bilim berish

**18. Milliy tarbiyaning hozirgi kundagi ahamiyati.** Maktablarda milliy tarbiya tizimini joriy qilishning nazariy asoslari. Milliy tarbiya ijtimoiy qonuniy va obyektiv jarayon sifatida. O'zbek milliy tarbiyasi tajribasining pedagogik tasnifi. Maktablarda milliy tarbiya tizimini joriy qilishning amaliy yo'nalishlari. Ta'limning milliy tarbiyaviy mazmuni va takomillashtirish. Maktab oila va mahallaning milliy tarbiya hamkorligi yo'nalishlari.

**19. O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim–tarbiya masalalari.** Xalq pedagogikasining nazariy asoslari. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari. Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod va usullari, vositalari. Xalq pedagogikasida xalq og'zaki ijodi.

**20. Ekologik tarbiya va tarbiyaviy ishlar.** Ekologik tarbiya mazmun mohiyati. Maktablarda ekologik tarbiyalashning pedagogik tizimi va mazmuni. Avestoda ta'iat muhofazasi to'g'risida. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashning forma va metodlari. Dars jarayonida o'quvchilarni ekologik

tarbiyalash. Sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarni ekologik tarbiyalash.

**21. Komil insonni tarbiyalashda nafosat tarbiyasi.** O'quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishning nazariy asoslari. Komil insonni shakllanishda nafosat tarbiyasining o'rni, uning mazmuni va mohiyati. O'quvchilarda nafosat tuyg'usini shakllantirish to'g'risida Sharq ma'rifatparvarlarining qarashlari. O'quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishda "Avesto" g'oyalaridan foydalanish yo'l va usullari. «Avesto»dagi pandnomalarning pedagogik mohiyati hamda undagi axloqiy va estetik qarashlar. Darslardan tashqari ishlarni tashkil qilish jarayonida o'quvchilarning nafosat tarbiyasini tashkil etish.

**22. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat his tuyg'ularini shakllantirish.** Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida vatanparlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr muruvvat his-tuyg'ulari tushunchalari va mohiyati. Buyuk mutafakkirlarimizni shaxsning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat haqidagi fikrlari va ularning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirishning shakl va metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda his-tuyg'ularni rivojlanishi. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirishning shakl va metodlari

**23. Pedagogika kasb-hunar kolleji o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.** Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati, maqsadi va shakllari. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalari. Mavzuli kechalar va ekskursiyalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni va roli. Bayramlar — talaba-yoshlarni tarbiyalashning muhim vositasi.

**24. Maktabda mafkuraviy tarbiyani tashkil etish metodikasi.** Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati va vazifalari. Yoshlarni

ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati, maqsadi va shakllari. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalari. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Mavzuli kechalar va ekskursiyalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni va roli.

**25. Odobnoma darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalar.** Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogi asoslari. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida. O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining talqini. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart –sharoitlari. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni. Odobnoma darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashning tashkiliy metodik yo'nalishlari. Odobnoma darslarida insonparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va usullari

**26. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish muammolari. Barkamol shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o'rni. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy-fiziologik imkoniyatlari boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish shart –sharoitlari. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyani shakllantirishning samarali usul va vositalari. Xalq o'yinlari jismoniy tarbiyani takomillashtirish vositasi sifatida

**27. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, kuzatish va tahlil etish metodikasi.** Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik asoslari. Ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlarning maqsad, vazifalari va turlari. Ta'lim–tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni o'tkazish mazmuni. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, tahlil etish metodikasi. Tarbiyaviy tadbirlarni tahlil qilish dasturi. Tadbir senariyalaridan namunalar.

## **28. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish yo'llari.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishning nazariy asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining o'ziga xos xususiyatlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda o'yinlarning ahamiyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishning amaliy asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda axloqiy tarbiyaning o'rni. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda foydalanuvchi jismoniy mashqlarni tanlashning axloqiy mezonlari.

**29. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslari. Fan-texnika taraqqiyotida ekologik ta'lim va ekologik ma'naviyatning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. Ekologik tarbiyalash to'grisida buyuk allomalarimizning pedagogik qarashlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashning forma va metodlari. Maktablarda ekologik tarbiyalashning pedagogik tizimi va mazmuni. Dars jarayonida o'quvchilarni ekologik tarbiyalash. Sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarni ekologik tarbiyalash.

**30. Al-Farobiyning axloqiy ta'limotida barkamol inson timsoli. Al-Farobiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, ta'lim –tarbiybiya rivoji va axloqiy ta'limotlar.** O'rta asrlardagi axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarning manbalari. Al-Buxoriy va Al-Farobiyning hayoti, faoliyati hamda ilmiy merosi. Al-Farobiyning axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalarining ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati. Al-Farobiyning axloqiy ta'limoti mazmuni. Al-Farobiy merosining yosh avlodni axloqiy tarbiyalashda tutgan o'rni.

**31. Tarbiyaviy ishlarda oila bilan maktabning o'zaro hamkorligi.** Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti. Oilada komil inson tarbiyasi. Oila – ma'naviy - axloqiy tarbiyaning o'chog'i. Tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikning mazmuni va ahamiyati. Ota-onalar bilan ishlash yo'llari va shakllari. Guruh rahbari oila va jamoa bilan olib borgan faoliyati.

**32. Boshlang'ich sinfda mehnatga o'rgatish.** Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi to'g'risida. Mehnat tarbiyasining shakl va metodlari. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishda xalq an'analari. Mehnat tarbiyasining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

**33. Oila jamoasini jipslashtirish metodikasi.** Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti. Oilada komil inson tarbiyasi. Oila – ma'naviy - axloqiy tarbiyaning o'chog'i. Tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikning mazmuni va ahamiyati. Ota-onalar bilan ishlash yo'llari va shakllari. Guruh rahbari oila va jamoa bilan olib borgan faoliyati.

**34. Kichik maktab yoshdagi bolalarini tarbiyalashda o'zbek xalq o'yinlarining ahamiyati.** Bolalarning ma'naviy tasavvurlarini shakllantirishda milliy o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari. Xalq milliy o'yinlarining paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti. Milliy harakatli o'yinlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim – tarbiya jarayonidir. Bolalarning kun tartibida milliy o'yinlardan foydalanish mazmuni, shakllari, metod va vositalari. O'zbek milliy xalq harakatli o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubiyoti. Milliy harakatli o'yinlarni tanlash va ularni bolalar yoshiga mos holda o'tkazish.

**35. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning roli.** Milliy qadriyatlar tushunchasi va ularning ijtimoiy ahamiyati. Qadriyatlarlarning jamiyatdagi roli. Umuminsoniy qadriyatlarlar va ularning jahon hamjihatligini mustahkamlashdagi ahamiyati. Umuminsoniy qadriyatlarlarning jamiyatimiz ma'naviy poklanishidagi roli. Ma'naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning omili sifatida.

**36. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish usullari.** Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarni yo'naltirishga qaratilgan faoliyati. Sinf rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatлари. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlar jarayonini rivojlantirish yo'llari. Sinf rahbari faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Sinf jamoasini tashkil etish va

tarbiyalashga qo'yilgan talablar. Sinf jamoasini o'rganish va uni dasturini ishlab chiqish.

**36. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda oila, matab, jamoatchilik hamkorligini tashkil etish metodikasi.** Tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikning mazmuni va ahamiyati. Ota-onalar bilan ishlash yo'llari va shakllari. Guruh rahbari oila va jamoa bilan olib borgan faoliyati

**37. Kichik maktab yoshi o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash.** Kichik maktab yoshi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning mazmun va mohiyati. Axloqiy tarbiya borasidagi tarixiy tajribalar. Kichik maktab yoshi o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashning pedagogik shart sharoitlari. Jismoniy mashg'ulotlarning kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashdagi o'rni. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari.

**38. «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlar va ularning yo'nalishlari.** «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarni o'rganish zaruriyati «Avesto»dagi pandnomalarning pedagogik mohiyati. «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlar. Zardusht—barkamol inson timsoli. «Avesto»da pedagogik g'oyalarning ifodalanishi. «Avesto»da mehnatsevarlik va vatanparvarlik g'oyalarining ifodalanishi.

### **39. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy pedagogik qarashlari**

XIX asr oxiri XX boshlarida turkiston o'lkalaridagi ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayot. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlarining shakllanish asoslari. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosi vositasida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlari va yo'llari. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va uning hozirgi zamon ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o'rni.

**40. Boshlang'ich ta'limda do'stona munosabatni tashkil etish.** Do'stona munosabat zamiridagi ta'lim va uning asosiy elementlari. Buyuk ajdodlar merosida

ustoz-shogird munosabati. Boshlang'ich ta'lim jarayonida bolaga do'stona muhitni shakllantirish shart-sharoitlari. Boshlang'ich ta'limda do'stona munosabatni tashkil etish jarayonining mazmuni, shakl, vosita, usul va metodlari.

**41. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.**

O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining talqini. Dars jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning samaradorlik darajasi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning tashkiliy metodik yunalishlari.

**42. Yosh avlodni tarbiyalashda At-Termiziy ta'limotining o'rni**

Muhammad Ibn Iso At-Termiziyning ta'lim-tarbiya hususidagi ta'limotida axloqiy qarashlarning o'rni. Abu Iso Termiziyning «Sahih Termiziy» asarida axloqiy tarbiya haqida. Abu Iso Termiziyning «Sahih Termiziy» asaridagi ezgulik va yaxshi qardoshlik haqida. At-Termiziy hadislarida ilmning fazilati va ahamiyati hamda ilm o'rganuvchi fazilatlar va ilm o'rganuvchi odoblari to'g'risida. At-Termiziy farzandni imon-e'tiqodli qilib tarbiyalashning zarurligi to'g'risida.

**43. Hadislar vositasida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik asoslari.** Hadis ilmining paydo bo'lishi. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati. Hadis ilmining rivojlanishi, hadislarida ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi. Hadislar orqali o'quvchilarda ilm-ma'rifat g'oyalarini singdirish yo'llari. Insoniy fazilatlarni hadislar yordamida o'quvchilarda shakllantirish. Komil insonni tarbiyalashda hadislardan foydalanishning ahamiyati, shakllari yo'llari.

**44. Sharq mutaffakirlarining g'oyalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya.** Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati Barkamol avlod tarbiyasi

jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati. "Avesto", "Qur'oni karim" va hadislarda ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi g'oyalari ifodasi. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi ta'limiy-axloqiy qarashlarining mazmun-mohiyati. Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari asosida sinf va sinfdan tashqari ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl, metod, vositalari

**45. Xalq urf-odatlarini orqali xalq urf-odatlarini mazmuni asosida o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish.** Xalq urf-odatlarini orqali xalq urf-odatlarini mazmuni asosida o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish shart-sharoitlari. O'rta Osiyo mutafakkirlari merosini o'rganish orqali o'quvchilarni tarbiyalash. O'quvchilarni xalq urf-odatlarini orqali tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilarni tarbiyalashda xalq an'alaridan va urf-odatlaridan foydalanish mazmuni, shakl va metodlari. O'quvchilarni urf-odatlar asosida tarbiyalashni shakllantirish metodlari. O'quvchilarni milliy urf-odatlarimiz orqali tarbiyalashda xalq an'alaridan foydalanishning shakl va metodlari.

**46. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish.** Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning nazariy asoslari.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muammosi sifatida. O'quvchilarda insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish borasidagi tarixiy tajribalar. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish yo'llari va imkoniyatlari. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish jarayonining mazmuni. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish yo'l va vositalari.

**47. Ma'naviy barkamol insonni shakllanishida oilaning tutgan o'rni.** Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti. Oilada komil inson tarbiyasi. Oila – ma'naviy – axloqiy tarbiyaning o'chog'i. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullari

**48. Oilada bola tarbiyasining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari.** Maktab yoshidagi bolalarda tarbiyani shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Bolalarda tarbiyani shakllantirishda pedagogik nazariya va san'atni tarbiyaviy funksiyalari. Oilada maktab yoshidagi bolalarda tarbiya tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik omillari. Maktab yoshidagi bolalarda tarbiyani pedagogik-psixologik xususiyatlarini shakllantirishda ota-ona-bola (farzand) munosabatlarining o'rni.

**49. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishning nazariy asoslari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining o'ziga xos xususiyatlari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda o'yinlarning ahamiyati. Harakatli o'yinlarning axloqiy imkoniyatlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishning amaliy asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda axloqiy tarbiyaning o'rni.

#### **Kurs ishini yozish tartibi va qoidalari.**

Kurs ishi 35 – 40 varaq hajmda talaba tomonidan kompyuterda yoziladi. Ishni boshlashdan oldin fan o'qituvchisi yoki kurs ishi yuzasidan tayinlangan rahbar bilan rejani kelishib olishi mumkin.

#### **Kurs ishini bajarish bosqichlari:**

- tavsiya etilgan mavzular orasidan mustaqil, qiziqqan yoki tanlangan ilmiy yo'nalishi bo'yicha mavzuni tanlab olishi;

- mavzu yuzasidan aniq ish rejasi ishlab chiqish;
- mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish va zaruriy materiallarni to'plash;
- tegishli tartibda nazariy asosini yoritishi;
- amaliy manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil etishi;
- kurs ishini aniq tushunarli so'zlardan foydalangan holda yozishi;

Kurs ishini rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish.

Kurs ishi A-4 formatli qog'ozning bir tomoniga yoziladi. Qog'ozning chap tomonidan 30 mm, o'ng tomonidan 20 mm. va pastdan 25 mm. bo'sh joy qoldirib 1,5 interval orasida yoziladi.

Kurs ishini bosh varag'idan boshlab, barcha sahifalar arab raqami bilan tartib raqam qo'yiladi.

Kurs ishinig barcha tarkibiy qismlari ya'ni kirish, birinchi, ikkinchi, uchinchi masalalar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yangi sahifadan boshlanadi.

Jadvallarning yuqori qismi o'ng burchagiga tartib raqami qo'yilib, so'ng nomi yoziladi. Oxirgi qismiga olingan manba ko'rsatib qo'yilishi shart.

Rasm, chizma va turli diagrammalar nomi pastki qismiga yoziladi va belgilangan tartibda nomerlanadi.

Har qanday jadval, rasm, chizma va diagrammalarga sharh berilishi shart.

Eslatma: Masalani yakuni jadval, rasm, chizma va diagrammalar bilan tugallanmaydi.

Kurs ishida ilova materiallari keltirilishi mumkin, majburiy va shart emas.

Adabiyotlar ro'yxati quyidagi tartibga keltirilishi shart:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.
3. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, nutqlari, asarlari.

Shundan so'ng tegishli adabiyotlar muallif familiyasi bosh harfi bo'yicha alifbo tartibda yoziladi, so'ngra maktab ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlari yoziladi.

Kurs ishi mazmuniga ko'ra alohida tanlangan aniq bir mavzuni nazariy asosini yoritadi, mavzu aniq korxona (tashkilot) misolida o'rganadi, uning kelgusidagi istiqbollarini ifoda etadi.

Kurs ishini nazariy asosini yoritishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident qaror va farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanishi, tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog olimlarning mehnatlaridan foydalanishi kerak.

Amaliy ahamiyatini boyitishda maktablarning ish tajribalariga tayangan ma'lumotlariga tayanishi zarur.

Mamlakatimizda olib borilayotgan strategik maqsadlar doirasidan kelib chiqqan holda, kelgusida tarbiyaviy ishlar samaradorligini yuksaltirishni ta'minlovchi aniq tavsiyalarni ko'rsatib berishi zarur.

Kurs ishining bosh varag'i ilovada keltirilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

### **Kurs ishini himoya qilish**

Talaba kurs ishini yozib yakunlagandan so'ng, nazariy kurs tugashidan kamida bir hafta oldin yozib tugatilishi va kafedra ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Kafedraga topshirilgan kurs ishlari rahbar tomonidan ko'rib chiqiladi va himoya qilishga loyiqligi aniqlanadi.

Belgilangan talablarga javob bermaydigan kurs ishlari qayta ishlashga talabaga qaytarib beriladi.

Fakultet dekanati tomonidan belgilangan kuni va kafedra tomonidan tuzilgan vakolatli shaxslar guruhi tomonidan himoya qabul qilinadi.

Ilola.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**Buxoro davlat universiteti**

«Boshlang‘ich ta’lim asoslari» kafedrası

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanidan

**K U R S I S H I**

Mavzu: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Tekshirdi: \_\_\_\_\_

Bajardi: \_\_\_\_\_

BUXORO-2015

Mavzu «ODOBNOMA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR»

## KIRISH

I BOB. ODOBNOMA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI  
INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK  
ASOSLARI

1.1. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash  
pedagogik muammo sifatida.

1.2. O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining  
talqini.

II BOB. ODOBNOMA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI  
INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-  
SHAROITLARI

2.1. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash  
mazmuni.

2.2. Odoynoma darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashning tashkiliy metodik yo'nalishlari

2.3. Odoynoma darslarida insonparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va usullari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

## KIRISH

**Kurs ishi mavzusining dolzarbligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotimizining nazariy-metodologik asosini "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ifodalandi. Bu tarixiy hujjatlarda mamlakat mehnatkashlarida ma'naviy-axloqiy salohiyat, jismoniy barkamollik ilmiy dunyoqarashni shakllantirish asosiy maqsad sifatida tavsiflanadi. Shuning uchun huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish sharoitida barkamol avlodda ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini tashkil etish butunlay yangi nazariy asosda amalga oshirilmog'i lozim.

Bu muammoni hal qilish birdan-bir yo'li boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona-yurtni sevis, insonparvalik, mehnatsevarlik, adolatli bo'lish his-tuyg'ularini tarbiyalashning muhim pedagogik imkoniyatlarini ishlab chiqish, hamda ularni boshlang'ich ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammoning yechimida boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlaridan maqsadli foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining zehni charxlash, aqliy qobiliyati va mantiqiy tafakkurini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida dono xalqimiz hamda o'tmish allomalar

tomonidan yaratilgan va xalq pedagogikasi nomini olgan manbalardan foydalanish o'rinli va samarali natija berishini tajriba ko'rsatib turibdi.

Milliy mustaqillik yillarida bolalarda yoshlikdan boshlab insonlarga hurmat va ehtirom bilan qarash ular mehnati va zehni bilan yaratilgan boyliklarni asrab avaylashga o'rgatish oila va maktab jamochiligining eng dolzarb masalasiga aylandi. Zero, ota nasihati, ona suti bilan singgan bir umr har qanday yosh avlodning qalbida muhrlanib qoladi. Shuni inobatga olib, kurs ishini boshlang'ich sinf o'quvchilarini odobnoma darslarida insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga yo'naltirdik.

Ma'lumki, Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarini tarbiyalash va voyaga yetkazish uchun yangi tipdagi dasturlar, qo'llanmalar ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Natijada 1994-1995-yillardan to 2006-2007-yillargacha yaratilgan va ishlab chiqilgan dastur o'quv qo'llanmalar boshlang'ich maktablarda faoliyatini yaxshilashga keng imkon yaratdi. Yaratilgan o'quv qo'llanmalar va dasturlarida hamda boshqa manbalarda maktabgacha yoshdagi bolalarda insonni anglash, uning tafakkur dunyosidan xabardor bo'lish to'qrisidagi aniq tasavvurlar va bilim berish masalasi keng yoritilgan. Bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ona va bola» Davlat dasto'rining qabul qilinishi boshlang'ich sinflar uchun quvonchli voqea bo'ldi. Chunonchi, Respublika ma'muriyati tomonidan yaratilayotgan ma'muriy hujjatlarda va Qonunlarda xalq maorifi tizimida komil insonni tarbiyalash va ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida qayd qilinadi, chunki, insonparvarlik, mehr-shafqat, bir-biriga ko'maklash ruhida tarbiyalash kabi fazilatlar o'zbek xalqining qadimdan amalga oshib kelayotgan odatlaridandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidan boshlab katta-yu kichik sinf o'quvchilarilarni hurmat qilishga, kamtarin va adolatli bo'lish kabi insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalashga ahamiyat berilgan, chunki odam dunyodagi mavjudodlari ichida eng aqllisi hisoblanadi. Odam xoh katta, xoh kichik sinf o'quvchilari bo'lsin

yashash uchun doimo mehnatda bo'radi va u shaxs bo'lib shakllanadi. Odam ta'lim tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida, ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura omillar ta'sirida yashaydi va ularni o'zlashtiradi, va shu jarayonda ijtimoyslashadi. Shuning uchun u doimo nazorat va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Shu munosabat bilan o'tmish allomalarimiz ham o'tmish bobolarimiz ham oila va bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, avvalo, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratganlar.

**Kurs ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Insonparvarlik – bu zamonaviy huquqiy demokratik hayot qoidasi va ijtimoiy tuzilishi ustunlaridan biriga aylanmoqda, zero u insoniyatning baxt-saodat va adolatga erishuvi orzusini dunyoviy, diniy va falsafiy jihatdan asoslaydi.

O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy. Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, Fitrat, Muqimiy, Avaz O'tar, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida inson erkinligi uning qadr-qimmatini va insonparvarligi buyuk g'oya degan fikrni olg'a surganlar, chunki insonparvarlik jamiyatida «Agar sen kishilarning qadr-qimmatini hurmat qilsang, kishilar ham sening qadr-qimmatini hurmat qiladi» tamoyili tantana qilgan va tantana qiladi. Insonparvar kishilar uchun o'z xatti-harakatlarini jamiyatning adolatli va oqilona Qonunlariga ko'ngilli va tabiiy ravishda amal qilishga o'rganganlar, yangi insonparvar jamiyat yangi, lekin u albatta insoniyatning insonparvarlik an'analarini, asrlar davomida shakllangan ezgulik printsiplarini inobatga oladigan axloqni yaratish yo'lidan boradi. Insonparvar dunyoqarash, inson ijodkorligining manguqligini tasdiqlaydi, shuning uchun o'tmish allomalari insonparvarlikka alohida e'tibor qaratgan .

Yoshlarda insonparvarlik his tuyg'ularini tarbiyalashning nazariy asoslarini akademik E.I.Monoszon, pedagogik yo'nalishlarini I.S Marenko, B.T.Lixachev, O.S.Bagdanova, N.Ortiqov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, Sh.Abdullaeva, X.Ibragimov, boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilari tarbiyasining turli yo'nalishlarini G.Komilova, L.Shonosirova, M.Xalilova va boshqalar o'z

risolalarida yoritganlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish ishlari M.Nazarov, M.Nishonboeva, M.Xoshimova, Z.Ismoilova, O.Xasanboeva, O.Turaeva, O.Abdullaeva, O.Ibodullaeva, S.Matrusov, O.Kalinina, M.Muxliboev va boshqalarning ishlarida aks ettirilgan.

Pedagogik, psixologik adabiyotlarning tahlili va amaliy faoliyat mazmunini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ancha nazariy ma'lumotlar to'planib amalda joriy qilingan. Ammo bugungi kunda insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlashga talab darajasida e'tibor qaratilmagan. Holbuki, boshlang'ich sinf o'quvchilari barcha ilmiy bilimlarni egallash, dunyoqarashni tarkib topish, ma'naviy-axloqiy salohiyatni tarbiyalashning poydevoridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiyasiga oid yaratilgan adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, bu davr bolalari uchun ta'lim-tarbiya, ayniqsa insonparvarlik tarbiyasi ishlarini yo'lga qo'yish qulay davr **ruhi** hisoblanadi. Shuni inobatga olib, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini yo'lga qo'yish uchun kurs ishi mavzusini «**Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash**» deb nomladik.

**Tadqiqot maqsadi:** odobnoma darslarida insonparvarlik tushunchalarini shakllantirishning shakl va metodlarini ishlab chiqish va ilmiy -amaliy tavsiyalar berish.

**Tadqiqot obyekti:** Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash shakl va metodlari.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashni pedagogik muammo sifatida asoslash.
2. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik jihatlarini aniqlash.
3. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash mazmunini ishlab chiqish.
4. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash shakl, metod va vositalarini pedagogik asoslash.
5. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik sifat va samaradoligini aniqlash.
6. Mavzuga doir ilmiy pedagogik va metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqish

**Tadqiqot metodlari:** ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, anketa, test, mashq, pedagogik tajriba natijalarini matematik-statistik tahlil qilish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi boshqaruv organlarining me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'grisida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

**Kurs ishining ilmiy yangiligi:**

- Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash shakl, metod yaratish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslab berildi.
- Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik muammo, balki psixologik muammo ekanligi yoritib berildi
- O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining talqini o'rganib chiqildi.

**Kurs ishining ilmiy- amaliy ahamiyati:**

- Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash shakl, metod va vositalari pedagogik asoslandi .
- Odobnoma darslarida o'quvchilarni inson insonparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik sifat va samaradiligini aniqlandi.
- Mavzuga doir ilmiy pedagogik va metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

**Kurs ishining tuzilishi:** 2bob, olti paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## **I BOB**

### **ODOBNOMA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

#### **1.1. Odobnoma darslarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida**

Xalqning insonparvarlik tarbiyasi uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin egallab kelgan. Insonparvarlikning inson taqdiridagi ahamiyati shundaki u doimo o'zining hayotiyligi, ta'sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma'naviy jihatidan hal etishda o'z ta'sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini hal qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining insonparvarligi tarix to'fonlari-yu ur-yiqitlariga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, toblanib, har bir davrda o'z faoliyatini takkomillashtirib, avlodlar tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan avval «insonparvarlik» tushunchasining mazmun –mohiyatini

ko'rib chiqaylik. Insonparvarlik («Inson»-arabcha: «Parvar»- fors-tojikcha: «lik» - o'zbekcha – «kishiga g'amxo'rlik, gumanizm») \_odamzodning qadri, erkinligi, yoshlikdan boshlab o'z iqtidorini har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurash ruhida, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish degan ma'noni anglatadi. Insonparvarlik uzoq tarixga ega.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'limotlarida insonparvarlik g'oyasi insoniyatning baxt saodati va adolatga erisruhidah orzusini anglatganligi sababli bu to'g'rida juda ko'p kitoblar yozganlar. Ayniqsa Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino , Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy , Alisher Navoiy , Mirzo Ulug'bek , Amir Temur, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida insonparvarlik g'oyalarini ilgari surganlar.

Insonparvarlik his-tuyg'usi har bir davrning huquqiy – axloqiy asoslarini ta'minlovchi hayot qoidasi va ustunlaridan biri hisoblangan va shunday bo'lib qolmoqda. Ilg'or davlatlarning ilg'or tajribasiga tayanib, O'zbekiston Respublikasi ham o'z Konstitutsiyasi va Qonunlarida inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir insonning barkamollashuviga alohida e'tibor qaratdi. Zero, ijtimoiy barkamollik va munosabatlarni insonparvarlashtirish singari dunyoni jahonshumullashtirish tamoyillari tarraqiyotning yangi tipiga - ijtimoiy insonparvarlikka olib keladi. Buning ma'nosi shundaki, insonparvarlik munosabatlari nafaqat madaniyat sohasida, balki jamiyat tuzilmasining barchasida ro'yobga chiqariladi. Bizning mamlakatimizda insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismidir. Bu g'oyalar mutafakkirlarning harakati bilan kiritilgan emas, balki, o'zbek tafakkurining uzviy qismi bo'lgan.

Shu munosabat bilan O.Xasanboeva, O.Ibragimovalar o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich sinflarda bolalarni insonparvarlik ruhida-tarbiyalashning muhim qismlarini tatqiq qilib, insonparvarlik barkamol shaxsning dastlabki fazilatlaridan biri ekanligini alohida qayd qilganlar. Zero, insonparvar

kishilar uchun o'z xatti-harakatlarini jamiyatning adolatli va oqilona Qonunlariga ko'ngilli va tabiiy ravishda amal qilish asosida qurish muhimdir. Yangi insonparvar jamiyat yangi, lekin u albatta, insoniyatning insonparvarlik an'analarini, asrlar davomida shakllangan ezgulik prinsiplari ruhida hisobga oladigan axloqni yaratish yo'lidan boradi. Insonparvar dunyoqarash—inson ijodkorligining manguqligini tasdiqlaydi. Zero, ayni inson ijodkorligi mahsuli o'lmas qadriyatlarga aylanish tamoyiliga ega. Insonning tanasi, «Qalbi» o'ladi, uning qilgan ishlari esa manguqlidir. Inson o'z hayotida ham xayrli, ham yomon ishlari qiladi, lekin ulardan xayrli va yaxshi ishlari ustuvor bo'lishi uning umrboqliqligini belgilaydi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek insonparvarlik g'oyalari uzoq tarixdan bizga qolgan. Bu muammoni tatqiq qilishga harakat qilgan N.Tilavova "Maktabgacha katta guruh bolalarida insonparvarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash kitobida o'tmish allomalarining insonparvarlik to'g'risidagi fikrlarini talqin qilgan. Uning ta'biricha o'tmish allomalar shaxsdagi insonparvarlik his-tuyg'usini tarbiyalash barkamollikning asosi deb bilganlar. Darhaqiqat, - Forobiy fikricha, baxt-saodat, osoyishta hayot, kishilar o'rtasidagi hamkorlik jarayonida insonning ko'p ijobiy fazilatlari va xislatlari asosida insonlar jamoasi yuzaga keladi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat'iy ravishda quvvatlab butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan.

Navoiy inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. U dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq, insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. «Odamiy ersang demagil odami, oniki yo'q xalq g'amidan g'ami», - Navoiyning shu misralaridanoq uning insonparvarligi yaqqol ko'rinib turibdi.

O'zbek jadidlari (Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat va boshqalar) va ma'rifatparvar shoirlar (Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar va boshqalar) ijodida ham insonparvarlik g'oyalari davom ettirilib yuksak insoniylik kuylangan.

Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkurida insonparvarlik g'oyalari azaldan keng tarqalgan bo'lib, uning ko'p ming yillik tarixi bilan chambarchas bog'liq, Yevropada esa insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor Yevropaning Uyg'onish davrida ya'ni XV-XVI asrlarda shakllangan.

Qadimgi kishilar nazdida oliyjanob, jasur, qahramonlik ko'rsatishga tayyor kishilarning ma'naviyati insonparvarlik bilan yo'g'rilgan. Er-Xubbi Turonda, Germes yunonlarda bunga misol bo'lla oladi. Islom ta'limotiga ko'ra, inson Olloh yaratgan maxluqlar orasida eng karamlisidir. Inson Yaratuvchining yerdagi xalifasi, ya'ni, Olloh buyurgan yaxshi amallarni amalga oshiruvchi ruhidir. Inson hatto farishtalardan ham yuqori martabali zot. Sharqda futuvvat Hotami Toyni insonparvar kishining umumlashgan obraziga aylantirdi. G'arb gummanistlari insonparvarlik insonning ichki va tashqi go'zalligidan deb biladilar. Ularning fikricha, odamda jismoniy va ma'naviy ibtidolar uyg'unlashganda insonning topgan lazzati, baxti axloqiy qimmatga ega bo'ladi.

Insonparvarlik nemis faylasufi Kant ta'limotiga ko'ra, Inson vosita emas balki maqsad bo'lishi lozim. Insonparvarlikning maqsadi, inson hayoti davomida o'z salohiyatini to'la namoyon qilib, jamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun maksimal sharoit yaratish, hamda to'sqinlik qiluvchi g'oyalarning puch ekanligini fosh qilish, g'ov bo'luvchi omillarni bartaraf etishdir.

Insonparvarlik inson qadr-qimmatini himoya etish va erkin huquqini talab qilishdir. Inson nafaqat tabiiy ofat, ijtimoiy institutlar tazyig'idan, hatto o'z havoyi havasidan, tanazzulga olib boruvchi mayillardan himoya etilishi uchun insonparvarlik toqazo etiladi. U inson ma'naviyatida ta'lim tarbiyaning ta'siri va ilm ma'rifat orqali shakllantiriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatining ochilishi va uning ta'limga nisbatan turli-tuman ehtiyojlarining

qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarning uyg'unlashuviga qaratilgan.

Mustaqil O'zbekiston o'z siyosatida insonparvarlik va gumanizm shartlari, talablari va qoidalariga, sharq va g'arb davlatlarining eng ilg'or tajribasiga tayanib, xalq hayotini va jamiyat faoliyatini tashkil qilmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasi va Qonunlari inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan. Insonparvarlik mavzusining nazariy va amaliy muammolarini yoritishda O'zbekiston olimlari oldida ulkan vazifalar turibdi. Insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismidir. Xalq tafakkurida doim mavjud bo'lgan narsa uning mutafakkir farzandlari (Forobiy, Navoiy va boshqalar) ijodida o'z ifodasini topgan. Ya'ni insonparvarlik g'oyalari tashqaridan mutafakkirlarning harakati bilan kiritilgan emas. U xalq tafakkurining uzviy qismi bo'lgan shu an'ana mustaqillik yillarida yanada davom ettirilmoqda. Insonparvarlikning hozirgi xalqimiz voqeligida namoyon bo'lishi shundan iboratki, mustaqil O'zbekiston tarixiy taraqqiyotining eng oqir yo'lidan, tinchlik, barqarorlik va totuvlik yo'lidan bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy – axloqiy negizlarini ilmiy-nazariy asoslarini dalillar ekan o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyyot yo'li» risolasida bu negizlarni quyidagicha belgilaydi:

-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik:

-xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish:

-insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi :

-insonparvarlik.

Insonparvarlik tarbiyasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ham falsafada, ham pedagogikada dolzarb muammo sifatida tatqiq qilingan. Chunki, «Insonparvarlik - bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir deb baholaydi. Darhaqiqat insonparvarlik o'zbek xalqining qon-qoniga singan muhim Axloqiy estetik ruhiyatdir. Inson o'z insonparvarligi yordamida faqat o'z xalqiga emas, balki boshqa millat mehnatkashlariga ham xayr-ehson ko'zi bilan qaraydi. Insonparvarlik o'zbek faylasuflari E.Yusupov, T.Maxmudov, M.Lafasov, S.Nosirxo'jaev, S.Otamurodov, S.Husanov, M.Imomnazarov pedagoglari O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, U.Mahkamov, M.Quronov, psixologlari E. G'oziev, M.Tokareva, Sh.Barotov va boshqalarning risolalarida o'z ifodasini topa oldilar.

Insonparvarlik tushunchasining nazariy, falsafiy asoslari M.Abdullaeva, A.Jalolov, K.Nazarovlarning kitoblarida quyidagicha tavsiflanadi. Jumladan, K.Nazarov: Insonparvarlik - odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash. Insonning, insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo'lgan adolat haqidagi orzular qadimiy xalqlarning ogzaki ijodida, mifologik , diniy , falsafiy qarashlarida yuzaga chiqa boshlagan. (Falsafa: qomusiy lug'at .-T. Shark nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati , 166-bet) .

K.Xonazarov «Insonparvarlik» tushunchasini shunday ta'riflaydi. Insonparvarlik (gumanizm) – insonniylik, insonparvarlik, inson haqida g'amxo'rlik- insonni himoya qilishga uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib olgan ta'limot.

Insonparvarlik tushunchasining pedagogik asoslari tarbiya nazariyasining tadqiqotchilari N.Tilabova, L.Yusupova, R.Mavlonova, M.Imomovalar tomonidan tariflangan. Insonparvarlik,- deb yozadi N.Tilabova,- mehr shafqat, bir-biriga

yordam, o'zaro hurmat kabi odatlardan iboratdir. (N.Tilabova «Maktabgacha katta yoshdagi guruh bolalarida insonparvarlik ruhini tarbiyalash ».- T.: fan 1994).

Iqtidorli pedagog M.Inomova “Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari” nomli tadqiqot ishida ma'naviy –axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida insonparvarlik shaxsning qimmatli qadriyatlardan biri deb tavsif etadi. Shuning uchun uni oilada qadriyat sifatida tarkib toptirishga intilish har bir ota-ona va pedagogning burchi ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda insonparvarlik tushunchalarini shakllantirishning pedagogik asoslarini o'rgangan O.Ibodullaeva – insonparvarlik tushunchasini shunday sharhlaydi- Insonparvarlik milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida boshqa xalqlar tili, urf-odatlar va an'analariga chuqur hurmat, ularning o'zligini saqlab qolish, madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va har tomonlama yordam ko'rsatish o'zbekona bagri kenglikning yorqin xususiyatlaridandir.

«Insonparvarlik, - deb qayd etiladi o'zbek tilining izohli lugatida, kishini qadrlash, unga muhabbat va hurmat bilan qarash. Kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish.

(O'zbek tilining izohli lug'ati, birinchi jild .- T.: O'zbekiston milliy intsiklopediyasi . 2006 -522 bet)

Insonparvarlik , - deb yozadi O.To'raeva , - kishilarning bir-biriga hurmatini, qadr-qimmatini, mehr-shafqatini, hamdardligini, o'zaro ko'maklashuvini, diyonatini, boshqalar qayg'usiga sherik bo'la olishini, o'zgalarga quvonchidan va baxtidan sevinishini, millat baxti va yutuqlaridan faxrlanishni ifodolovchi axloqiy tushunchadir. (Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev – Toshkent, «O'qituvchi», 2001 -408 bet)

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, insonparvarlik muhim pedagogik tushuncha hisoblanib, u o'quvchilarning madaniyatini, ma'naviyatini tarkib toptirishga hamda ularning axloqiy estetik dunyoqarashini shakllanishini amalga oshiruvchi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchi yoshlarda insonparvarlik tushunchalarini, ruhida-tarbiyalash boshlang'ich sinf o'quvchilaridan tarbiyalashni yo'lga qo'yish lozim ekanligini ta'kidlash joyiz.

## **1.2.O'rta Osiyo mutafakkirlari ta'limotida insonparvarlik tuyg'usining talqini.**

O'rta asr Sharqidan yetishib chiqqan buyuk donishmandlar - Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-faniga qo'shgan hissalarini bebahodir. Ularning oila tarixi, ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabatlar, bola tarbiyasi, yoshlarning ijtimoiy burchga va insonparvarlikka da'vat etish sohasidagi dono qarashlari ham katta ahamiyatga ega.

Abu Rayhon Beruniyning oila, oila totuvligi, oila qurish tabiiy ekanligi haqidagi fikrlarini maktabda «Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi», oliy o'quv yurtida pedagogika fanlaridan o'qilayotgan leksiya mashg'ulotlarda o'rganish mumkin.

Beruniy: «Hech bir oila – nikoh munosabatlaridan xolis emas. Ular, ya'ni, oila –o'gil va qizlari bilan faxrlanadilar. Oila qurish xususida har bir xalqning o'ziga xos urf va odatlari bor... Masalan, Hindistonda bolalarni yoshlik vaqtida unashtirib qo'yadilar. Er bilan xotin o'rtasini o'limdan boshqa hech nima ayira olmaydi, Hindistonda taloq qilish ham, ajralish ham yo'q... Olimning bu so'zlaridan bugun biz quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin:

- oila-nikoh bu tabiiy jarayon, hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat, bo'lsa jamiyat yasharib bormaydi;

- oila va uning to'liq ma'nosida bolalar tarbiyasi yotadi. Bu ish oilaning ijtimoiy burchi;

- qarindoshlarga emas, begonalarga uylanib, avlodlar sog'ligini mustahkamlash.

Olim oila qurish oson va engil ish emas ekanligini quyidagi hikoyat bilan isbotlamoqchi bo'ladi.

«Xorun ar-Rashidning boshqalar hech barobar bo'la olmaydigan go'zal kanizagi bor edi. Rashid har safar qimmatbaho javohirlarni saroydagi kanizaklarga baxsh etganda, o'sha go'zal kanizak – Xolisa o'z hissasini Rashidga qaytarib yuborar ekan. Rashid bundan qattiq achchiqlangan. Bir kuni u kanizaklarga sovg'alarni o'zi ulashganida hammalari o'z hissalarini olganlar, lekin Xolisa yana hech narsa olmagan . Rashid undan nega sovg'alarni olmading deb so'ragan.

Shunda Xolisa:

- Agar tanlagan narsam meniki bo'ladigan bo'lsa – deb u Rashidga yaqinlashadi. Rashidni qo'lidan tutib, «mana mening tanlaganim» –deydi. Rashid xursand bo'lib, Xolisaga uylanadi va uni baxtli qiladi.»

Ko'rinib turibdiki, zeb-ziynat, boylik insoniy sevgi-muhabbatdan ustun emas. Shunga ko'ra oilaviy sevgiga sodiqlik sharaflanib, Xolisadek pokiza ayollar hurmati joyiga qo'yilgan. Eng muhimi, bunda Beruniy oilada oqil er-xotin aql, idrok, farosat bilan yashaganda moddiy-ma'naviy mamnuniyatga ega bo'lishini aytadi.

Ulug' olim fikricha, inson tabiatida muhim narsalaradan biri, turmushga, oilaga avvalo «rozilik» ko'zlari bilan munosatda bo'lib, oilaviy hayotda murosayu-madora, kelishuvchilik orqali yomonliklaridan xolis bo'lish kerak. Buyuk alloma o'z asarlarida bola tarbiyasi, o'gil-qizni mo'tadil qilib o'stirish, mehnatkash, chevar qilib tarbiyalash kabi masalalarga alohida e'tibor bergan. Shularga binoan xalq urf-odatlarini chuqur o'rganib bu ibratomuz hayotiy tajriba va fikrlarni o'z asarlariga kiritdi. Abu Rayhon Beruniy kishilardagi barcha salbiy holatlarni qoralab, yaxshilik, olijanoblik va

muruvvatlilikni ulug'lagan. U «Yaxshilik barcha odamlarga bab-baravar, xususan, o'z ahliga (qarindosh oila a'zolariga) hamdam bo'lishga intilish, ojiz qolganda orzu-tilaklar bilan (so'zlar bilan), lozim bo'lganda (imkoniyatdan chiqib) amaliy yordam berish»ga kishilarni da'vat etadi.

Olim oiladagi hamkorlik, o'zaro bir-birlariga yordamlashishda, mehnat taqsimoti masalalarini ko'rsatibgina qolmay, umuman kishilar o'rtasidagi insoniy, aqliy munosabatlarning qanday bo'lishi haqida ham o'z fikrini bildirgan. «Biroq, - deydi olim, - qayerda podsho bo'sh va uning buyruqlari kuchsiz bo'lsa, qayerda u noaniq munosabatlar va qo'rqitishga amal qilsa, shu yerda oddiy tartiblar ham, intizom ham bo'lmaydi». Bu haqiqat oila boshlig'iga ham tegishlidir. Buyuk mutafakkir Beruniy oilada bola tarbiyalashning to'qri yo'l-yo'riqlarini ham hayotiy tajribalar, ajoyib hikmatlar misolida ko'rsatib bergan. Buyuk shifokor va faylasuf Abu Ali ibn Sino ham hayot va fan to'g'risida durdona fikrlarni olg'a surgan. Ulug' mutafakkir oila tarbiyasiga doir maxsus asarlar yozib, bola tarbiyasi bilan eng avvalo ota-ona mashg'ul bo'lishi kerakligini aytadi. Uning tibbiyotga bag'ishlangan she'riy asari «Urjuza»da bola tug'ilishi va tarbiyasi, go'dakka xos bo'lgan tadbirlar kabi masalalar keng va atroflicha yoritilgan.

Ibn Sino «Bola tug'ilishidan oldingi tarbiya» haqida gapirib, onani, ayolni yaxshi parvarishlash, sog'lom bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish zarurligini aytadi. Ona sutini ham sharafligi, ham keyingi tarbiyaga ozuqa deb biladi: «Emchak sut paydo qilish uchun yaratilgan a'zo bo'lib, bola tug'ilishidan boshlab, to pishiqlashib, quvvati o'sib, qattiq va tig'iz ovqatni hazm qilish qobiliyati bo'lguncha undan ovqatlanadi.

Bilingki, sut toza qonning ko'payishi bilan ko'payadi, uning kamayishi esa toza qonning yo'qolishi yoki kamayishi tufaylidir». Shu o'rinda Abu Ali ibn Sino ona sutini ko'paytirish vositalarini aytib, onani parhezli ovqatlantirish masalalarini keng sharxlab beradi. Mutafakkir bola tarbiyasining yana bir muhim tomonga e'tiborni qaratib, bu ishni farzandga ism qo'yishdan boshlash lozim. Bu esa ism jarangli, ohanraboli va faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi darkor, deydi. Abu Ali ibn

Sino yozadi insonparvarlik, mardlik aql va bilim bilan g'urur nasab bilan emas. Ota-onang qo'ygan otga mag'rur bo'lmagil, bu faqat tashqi ko'rinishdan boshqa narsa emas. Sen hunar bilan taniqli nomga ega bo'lgil».

Kishi o'zining xarakteri va xulqidagi yomon tomonlarni tugatish yo'lini bilishi kerak. Kimki o'zidagi kamchiliklarni tugata borsa, u boshqalardagi nuqson va kamchiliklarni ham tugatishga yordam beradi, degan xulosaga keladi mutafakkir. Abu Ali ibn Sinoning mana bu fikrlari ham ibratlidir. «Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak,- deb yozadi u. – Bunga esa bolani qattiq gazablanishdan, qo'rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolalarning xohlagan va foydali narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga tarbiyachi doimo tayyor bo'lib turishi kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan, bolaning ruhiga foyda qiladi va bora-bora unda xushxulqlik odat bo'lib qoladi, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlari tufayli sodir bo'ladi. Shuningdek, agar yomon odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, «g'azab mijozni kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli ozdiradi, xafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni balg'amlikka (kasallikka –E.T.) moyil qiladi. Xulqning mu'tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog'lom bo'ladi.»

Kishi organizmini chiniqtirishda, kuchaytirishda, xulq-odobni yaxshilashda asosan tabiat ne'matlaridan: quyosh, suv, havo, o'simlik beradigan ozuqalardan to'g'ri foydalanish ham zarur, deydi olim. Shunga ko'ra odam quyidagilarga amal qilishi ayni muddaodir:

1. Mijozini mo'tadil tutishi;
2. Ovqatni tanlashi;
3. Badanni toza tutishi;
4. Qaddi-qomatni to'g'ri boshqarishi;
5. Burun orqali toza havodan yetarli nafas olishi;

6. Kiyimlarni toza va qulay kiyishi;

7. Jismoniy va ruhiy (aqliy) harakatlarni me`yorida – normal bajarishi lozim.

Shuni alohida ta`kidlab o'tish joizki, xulqning mo`tadilligi, shirinligi, olijanoblighi oilada, jamoatchilikda va jamoada ijobiy tarbiya mahsuli ekanligi bugungi pedagogikada to'la isbotlangan.

Ibn Sino ana shunday hissiy fazilatlarni sanab o'tib, ularning tarbiyaviy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Masalan: qanoatni olib ko'raylik. Inson ochko'zlikdan o'zini tiysa, ovqatlanishda mo`tadillikka rioya qiladi. Xuddi shuningdek, saxiylik yordamga muhtoj bo'lgan kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat: jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi; chidamlilik – inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat; aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlanishlik; ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma`nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat ruhida toblanadi.

Ibn Sino ana shu yaxshi fazilatlarni bolalarga singdirishda maktab, nuqsonlarni tugatish uchun sharoit yaratishda esa muallim muhim tarbiyaviy ta`sir o'tkazuvchi kuch ekanligini ko'rsatadi.

Bola axloqining shakllanishiga, deydi olim, oila a`zolari, ayniqsa er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati, o'zaro hurmat qilishlari ijobiy ta`sir ko'rsatadi. Oiladagi bu vaziyat bolani yoshlikdan yaxshi fazilatlar egasi bo'lib borishga, do'st va o'rtoq tanlashga, jamoatchilik va insonparvarlikka, mehnat va kasb tarbiyasiga kuchli ta`sir o'tkazadi deb tushuntiradi olim.

Afsuski, hozirda ham nosoglom oilalar, ota-onasi bo'la turib farzandlarini bolalar uyida tarbiyalanayotgan «tirik yetimlar» oz deysizmi?! «Yaxshilik va yomonlik, «hallolik va haromlik» kabi qarama-qarshi holatlar ko'zga tashlanmoqda. Bu singari muhim muammolarni bartaraf etishda oila va oilaviy tarbiyaga doir ilg'or g'oyalar, jumladan Beruniy va Abu Ali ibn Sinodek

allomalarning insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish bilan qiyoslab o'rganish imkonini beradi.

Oila muammosi jamiyatimizning hama bosqichlarida umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan. Xalqimizning azaliy orzusi farzandlari qalbiga «Nima yaxshi-yu, nima yomon», «insonparvarlik ruhida tarbiya» yoshlikdan muhrlashdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash haqida Shayx Sa'diy o'zining «Guliston» asarida shunday deb yozgan: «Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach, baxtli bo'la olmaydi. Ho'l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to'g'rilash mumkin». Insonparvarlik ruhida tarbiyalash haqidagi bu g'oya avlod-ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga yetkazishda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik ruhida tarbiyalash— bu tarixiy va ma'naviy hodisadir. Insonparvarlik ruhida tarbiyalash ularni ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi, shu bilan birga insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va mohiyati amalga oshadi.

## **II BOB**

### **ODOBNOMA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .**

#### **2.1. Odobnoma darslarida Boshlang'ich sinf o`quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashning tashkiliy metodik yo`nalishlari**

Boshlang'ich sinf o`quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun avvalo, uning mazmun - mohiyatini yechib chiqish zarur bo'ladi. Uning mazmunini har bir millatning qadriyat va an`analari tashkil etadi. Insonparvarlik milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida har bir xalqning tili, urf-odatlar va an`analariga chuqur hurmat, ularning o'zligini saqlab qolish, madaniy-ma`naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish bilan tavsiflanadi. Insonparvarlik ana shunday bag'rikenglik, sabr-bardoshlilik, madaniyatimizning benazir namunalarini saqlab qolish, asrlar sinovidan olib o'tish, kamol toptirish, hamda o'zga xalqlar madaniyatini o'rganishni nazarda tutadi. Xalqimizning ma`naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etish bilan birga, kishilarni halol, pok yashashga, hamjihat, ahil bo'lishga, el-yurt manfaatlarini har qanday shaxsiy manfaatlardan ustun

qo'yishga undaydi. Insonparvarlik jamiyatimizda demokratik tamoyilarning qaror topishida, haqiqatning ro'yobga chiqishida, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishini ta'minlashida, zamonaviy kadrlar tayyorlashda jamiyat, shaxs, davlatning uzviy bog'liqlik holda ishlashni taqozo qiladi. Buning natijasida odamlar mustaqillik, demokratiya, fikr erkinligi, o'zlikni anglash, milliy xususiyatlar, orzu-umidlar, taffakur rivojlanadi. Insonparvarlik «Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha tamoyillari» Konsepsiya mazmunining o'q ildizi sifatida o'rin egallab, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikni o'z mazmunida aks ettiradi.

Faylasuf olim, akademik E.Yusupovning ta'kidlashicha insonparvarlikning mazmunida millatning barqarorligini va o'zbek xalqining qalbida chuqur izohlanuvchi mehr va muruvvatni ham ifodalaydi. Zero, insonparvarlik o'zbek xalqining milliy urf-odatlari bilan bevosita bog'liqdir. U xalqning dardi, millat manfaati va ehtiyojini qo'llab-quvvatlaydi. Kishilarning insonparvarlashuviga, o'zini anglashga ta'sir qiladi. Xalqimizning urf-odatlari, an'analari haqidagi bilim, malaka va boy tajribalarini kelgusi avlodga o'tisida ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

O.To'rayeva va O.Hasanboyevalar milliy o'zlikni anglash insonparvarlik fazilatlarini orqali ifodalanadi deb ta'kidlaydilar. Chunki, insonparvarlik milliylik o'zlikni anglashga va uni amalga oshirishga kurash olib boruvchi kuch ham hisoblanadi. Insonparvarlik ijtimoiy ruhiyat, kayfiyat, ichki uyushtiruvchi, yo'naltiruvchi, harakatga keltiruvchi etaklovchi kuchga ega bo'lish bilan birga, har bir fuqaroda yurt uchun chin dildan bunyodkorlik ishlarini olib borishiga chorlaydi.

Pedagogik nazariyaning ma'lumot berishicha, insonparvarlikning asl mohiyatini anglash bu o'zbekona tafakkur, dunyoqarash, milliy istiqlol g'oyasi bilan yashash demakdir. Har bir oila, ota-ona, mahalla, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tiborli bo'lish, kattaga-hurmat, kichik maktab o'quvchilariga-izzat, sabr-

bardosh va mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, adolatparvar bo'lish insonparvarlikning asosiy xususiyatlaridandir.

Insonparvarlik jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Insonni ma'rifatga chorlaydi. Jamiyatni ma'rifat bilan boshqaradi. Ijtimoiy ongni o'zgartiradi. Insonparvarlik jamiyatda demokratiyani har bir fuqaroning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, jamiyat hayotidan chuqur o'rin egallagan. Chunki jamiyat taraqqiyoti va kishilarning insonparvarligi bir-biri bilan uzviy jarayon hisoblanadi. Insonparvarlik ruhida tarbiyalangan kishilar jamiyat hayotida faol ishtirok etib, uni rivojlantirishga munosib hissa qo'shadilar. Chunki, insonparvarlik g'oyasining mazmunida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy faollik kabi milliy istiqlol g'oyasining komponentlari mujassamlashgan. Shu bois ham mustaqil O'zbekistonda insonparvarlik va demokratik tamoyillarini rivojlantirish bo'yicha qator farmoyishlar qabul qilindi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar insonparvarlik ruhida tarbiyalashning to'la mazmunini ifodalay oladi. Shuning uchun uni yoshlarda tarbiyalash, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirish muhim pedagogik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlaridan xabardorlik har bir o'qituvchi –tarbiyachining vazifasidir.

## **2.2. Odobnoma darslarida insonparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va usullari.**

Inson shaxsini bolalikdan boshlab shakllantirish bo'yicha olib boriladigan har qanday tadbir pedagogik jihatdan aniq tashkil etilsa u ko'zlangan maqsadga erishishiga yo'l ochib beradi.

Boshlang'ich sinf bolalarini insoparvarlik ruhida tarbiyalash ko'p jihatdan bu ishga qo'yilgan poydevorga bog'liqdir. Shunday ekan bolalarda insoparvarlikni tarbiyalash maktabgacha tarbiya yoshdan boshlanishi va bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilari ma'lumotlariga ega bo'lmogi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash mashg'ulotlari

Insonparvarlik haqida tushuncha berish.

Bolalarga insonparvarlik mohiyatini tushuntirish, unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyachi bolalarga O'zbekistonda insonparvar jamiyati qurilayotganida Prezidentimiz I.A.Karimovning olib borayotgan ishlarini tushuntiradi va unga sodiq bo'lishga chorlovchi quyidagi ma'lumotlarini hikoya qilib beradi.

Bolalar! Bizning mustaqil O'zbekistonimiz insonparvarlik jamiyatini qurmoqda. Shuning uchun ham yakka-yolg'iz faxriylarga, nogironlarga, serfarzand oilalarga, ko'makka muhtoj boshqa fuqarolarga hurmat-e'tibor va xayr-saxovat ko'rsatish O'zbekistonda odat tusiga aylangan. Yurtboshimiz Islom Karimovning ta'kidlashicha, «Insonparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlaridir. Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi – madaniyat; ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixining o'yini ham, omonsiz jang-u jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir.»

Haqiqatdan ham o'zbek xalqi uchun insonparvarlik qadimiy odatdir. Shuning uchun ham odamlar begona kishilarni ham uyga taklif qilishgan, ularni

hurmat bilan mehmon qilishgan. Insonlar ixtiyoriy ravishda kambagal oilalarga yordam berganlar. Kimdir qiynalib qolsa yordam berish an`ana bo`lib qolgan. Bunday insonparvarlik o`zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.

Adolat, shafqat, mehribonlik, hurmat, saxovat, kishilarga odamiylik, oliyjanoblik kabilar insonparvar kishilarga xosdir.

Insonparvar kishi doimo samimiy bo`lib, odamlarga yordam beradi. Kishilarning hayotiga, ularning turli urf-odatlarini, e`tiqodlari va intilishlariga qiziqish bilan qaraydi.

Bolalar! Insonparvarlik – mehmondo`stlik, serfarzand oilalarga gamxo`rlik qilish, to`y va marosimlarda o`zaro yordamlashishdahi, hashar, oilada bir-biriga ko`maklashishdahi, himmatlilik kabilar bilan chambarchas bogliqdir. Shunday ekan, ota-bobolarimizning udumiga sodiq bo`lgan holda bir-birimizga mehr-oqibatli, shafqatli bo`laylik. Insonparvarlikning maqsadi odamlarga mehr-shafqat, muruvvat, qiynalganlarga madad, kambag`allar va muhtojlarga yordam, xayr-ehson, mehr-muruvvat ko`rsatishdir.

Insonparvarlik rishtalari qanchalik mustahkamlanib borsa, hayotimiz yanada charog`on va foydali bo`ladi.

Mashg`ulotni mustahkakmlash uchun savollar:

- 1.Insonparvar odamlar qanday bo`ladi?
- 2.Oilangizda kimlarni insonparvar deb bilasiz va nima uchun?
- 3.Siz insonparvar bo`lsangiz qanday ishlarni bajarasiz?

Bolalarga O`zbekiston haqida ma`lumot berish. Bolalarning Vatan haqidagi tushunchalarini kengaytirish. O`zbekiston bayrog`i, gerbi bilan tanishtirish.

Mashg'ulotdan 5-10 kun ilgari o'qituvchi O'zbekiston haqida ko'rgazma tashkil etadi. Unda O'zbekiston mustaqilligi 1991-yil 1-sentyabr haqida ma'lumotlar, O'zbekiston bayrog'i, gerbi va boshqa ramzlari, Toshkent va boshqa shaharlarning ko'rinishi, respublikamizning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi rasmlar o'rin olishi lozim. Tarbiyachi bu mashg'ulotga guruhdagi har bir bolaning faol ishtirok etishiga harakat qilinadi. Ularga O'zbekiston, Vatan haqidagi boshlang'ich sinf o'quvchilari she'rlarni yodlashga beradi. Qo'shiq va raqslar tayyorlanadi. Bolalar «O'zbekiston – vatanim manim!» ko'rgazmasida respublikamiz prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning portreti va bolalarga qilgan g'amxo'rliklari haqida va O'zbekiston markazi Toshkent, Amir Temur, Xalqlar do'stligi, Alisher Navoiy, Mustaqillik maydoni, Chorsu kabi tarixiy joylarning ko'rinishlarini aks ettiruvchi rasmlar bilan tanishadilar.

Bolalar! Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. U o'z yurtini nihoyatda yaxshi ko'rar ekan, u haqiqatparvar, mard, pahlavon, jasur yigit ekan. Mehnatsevar bo'lganligi uchun boy-badavlat yashar ekan. Bir kuni uning yurtiga qo'shni yurtining podshosidan elchilar kelibdi. Ular o'zlarining podshosi ko'p askarlar bilan mamlakat chegarasida turganligini, agar boyliklarining yarmini bermasa, urush boshlashlarini aytibdi. Podsho ya'ni yigit el-yurt tinchligini o'ylab, boylikning yarmini elchilarga berishga majbur bo'libdi. Ertasiga elchilar yana kelishibdi. Bu safar ular podshoning yosh hamda chiroyli xotinini talab qilishibdi. Podsho yana el-yurt tinchligini o'ylab, noiloj xotinini elchilarga topshiribdi. Uchinchi kuni ham elchilar kelishibdi-da, lashkarning oyog'i ostiga sochish uchun bu yurtining bir siqim tuprog'ini so'rashibdi. Shunda yigitning nafrati qaynab toshibdi. Qilichini sug'urib, shartta elchilarning boshini olibdi-da, o'z askarlarini janga boshlabdi. U o'z Vatani uchun, Vatan qudrati, Vatan tuprog'i uchun jonini berishga tayyorman deb qasam ichibdi.

Ha, o'tmishda ota-bobolarimiz Vatan uchun jonlarini qurbon qilganlar. Vatan tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo qilib surtganlar.

Vatan har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari – ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi. Voyaga yetkazadi.

Inson o'z Vatanida, ya'ni oilasida kamol topadi, qadrlanadi. Hayot maktabini o'taydi. Farovonlik va baxt-saodatga erishadi. 1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston mustaqillika erishdi. Mustaqillik tufayli O'zbekistonning shon-shuhrati, moddiy va ma'naviy boyligi butun jahonga taraldi. Vatanimiz o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasiga ega bo'ldi. Jahon bo'ylab hilpirab turgan O'zbekiston bayrogida xalqimizning ruhi, g'urur iftixori, qudrati, orzu-intilishlari mujassamlashgan.

Mashg'ulotlarni mustahkamlash uchun beriladigan savollar:

- 1.Vatan haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
- 2.Mustaqil O'zbekiston qachon tashkil topgan?
- 3.O'zbekistonning bayrogida nimalar aks etgan?
- 4.O'zbekiston gerbida nimalar aks etgan?
- 5.Nima uchun ona Vatan deymiz?

Bolalarga vatanparvarlik haqida tushuncha berish va ularda Vatanni sevish ruhida-tuyg'ularini tarbiyalash lozim.

Ko'rgazmali materiallar: Vatanimiz istiqloli uchun kurashgan Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Fayzulla Xo'jaev. Akmal Ikromovlarning rasmlari.

Mashg'ulot uslubi: Hikoya qilish, tushuntirish, namuna savol-javoblar usullaridan foydalanish mumkin.

Biz quyidagi mashg'ulotlarni tayyorlashda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari, rivoyat va shakllarga asoslanish bilan birga keyingi yillarda chop etilgan A.Avloniyning «Odobnoma», U.Mahkamovning «Axloq-odob saboqlari» kabi asarlaridan keng foydalandik.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda yuqorida amalga oshirilgan ishlar ta'lim islohotlari talablari asosida tashkil qilindi. Bu turli yo'sh bolalarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun amaliy yordam ko'rsatadi. Demak, inson shaxsini bolalikdan boshlab shakllantirish bo'yicha olib boriladigan har qanday tadbir pedagogik jihatdan aniq tashkil etilsa u ko'zlangan maqsadga erishishga yo'l ochib beradi.

Boshlang'ich sinf bolalarning insonparvarlik ruhida tarbiyalash, aynigsa, buyuk siymolar haqida tushuncha berish uslublarini ishlab chiqish har bir o'qituvchi ish faoliyatining mazmuni bo'lishda muhim ahamiyatga ega. Bizning kuzatishlarimiz, ish tajribalarimizdan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari juda tez his-tuyg'uga beriladilar. Bundan shu narsa ko'rinadiki, birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroklari, kuzatishlari, xayollari, aqliy faoliyatlari odatda his-tuyg'ularga boy bo'ladi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf bolalari xissiyotlarini tiyib tura olmaydilar. Bu hissiyotlarning tashqi jihatdan namoyon bo'lishini nazorat qila olmaydilar. Bolalar o'z xursandchiliklarini, tashvishlarini, g'amginliklarini, qo'rquvlarini, qanoat hosil qilganliklarini yoki qanoatlanmaganlarini samimiy ravishda ochiq-oydin izhor qiladilar.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining zo'r hissiyotlari, beqarorliklari, kayfiyatlarining tez-tez o'zgarib turishi, ijobiy holatiga moyiliklari, xursandchilik-g'amginlik, g'azab va qo'rquvlarning qisqa muddatli va jo'shqin namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Demak, bolalarni insonparvarlikni ruhida tarbiyalash tez shakllanadi. Chunki kattalarda insonparvarlik qaror topgan bo'lsa, bolalarda endigina ularning poydevori qo'yilayotgan bo'ladi. Bolalar, o'z

tabiatiga ko'ra ta'sirchan bo'lganliklari uchun ularga voqealarning ta'siri kuchli bo'ladi.

Boshlang'ich maktab bolalari o'qituvchilari olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qituvchilar mashg'ulotning insonparvarlik maqsadlariga etarlicha e'tibor bermaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bolalar bilan o'tiladigan darslarda o'qituvchilar ko'p holatlarda o'quvchilarda insonparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor bermaydilar, ammo o'quv fanlarining dasturlariga kiritilgan mavzularda boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Buni boshlang'ich sinflarning "Ona tili", "O'qish" "Odobnoma" fanlari mazmuniga kiritilgan mavzular orqali amalga oshirish mumkin. Bu mavzularda insonparvarlik ma'nosini amaliy tajribada ko'rsatuvchi ma'lumotlar ko'pgina. Shuni inobatga olib boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarda insonparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beruvchi mavzular tizimini har bir sinf kesimida tuzib chiqdik. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan yuqorida qayd etib o'tilgan fanlar ona Vatanga muhabbat, tabiatga hurmat, ustoz, murabbiy va ota-onalarga ehtirom, xalq mulkini asrash va ko'paytirishga da'vat mazmunini anglatadi. Bu mavzular "Ona bitta – Vatan yagonadir", "Ona – yurtim – oltin beshigim", "Oltin kuz – hosiling yo'z", "Xalq o'giti – baxt kaliti", "Mehnat – baxt keltirar", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Odob – insonga husn" kabi ruknlar ostida berilgan.

### **Dars mavzusi: E.Voxidov "O'zbekim".**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga E.Vohidovning "O'zbekim" she'ri yozilish tarixi va she'r mazmuni haqida tushuncha berish; o'zbek xalqining o'tmishi va hozirgi kuniga muhabbat va hurmat kabi his-tuyg'ularini tarbiyalash; o'quvchilarni mustaqil fikrlash, o'ylash va qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mashg'ulot topshiriqli ta'lim texnologiyasi asosida olib borildi. Bu ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda o'qituvchi yangi mavzuga aloqador barcha ma'lumotlarni birdaniga aytib qo'ya qolmaydi. Balki uning

ma'lum qismini o'quvchilarga topshiriq sifatida havola qiladi. Bu ta'lim o'quvchilarda ijodiy tafakkur va qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Dars E.Vohidovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berish bilan boshlandi, so'ngra uch o'quvchi sinf doskasi oldiga chaqirilib ketma-ketlikda she'rni o'qish topshirig'i berildi. So'ngra she'r ifodali o'qishga tavsiya qilindi. Darsning qolgan qismida o'qituvchi "O'zbekim" she'ri matni yuzasidan "Baxtli tasodif" o'yinining topshiriqli savollari bilan murojaat qilindi. O'quvchilar topshiriq talab qilgan javobni she'r matnidan tez va aniq topishlari vazifa qilib topshirildi.

E.Voxidov "O'zbekim" ta'lim texnologiyasi "Baxtli tasodif o'yini".

1. Qa'sidada tasvirlangan" Dunyo tomi" deb tan olingan tog'?
2. "Al-jabr val-muqobala" asarining muallifi, qomusiy olim?
3. Jahonda "Astronomiya kaliti", "Qonuni Mas'udiy", "Attafxim" asarlari bilan mashhur qomusiy olim?
4. Dunyoda "Fozil kishilar shaxri" deb nom olgan asar muallifi, I.Karimov "Barkamol avlod orzusi" kitobida yaxshi munosabat bildirilgan shaxs?
5. Shamshirlarni o'ynatib, xalq boshiga zulm-u sitam yog'dirgan sultonlar?
6. "Ikki daryo—ikki chashm" deb nima nomlanadi?
7. Davr zulmiga bir umr boshhegmagan tarixiy shaxs?
8. Sirli ismon tog'iga norvon qo'ygan tarixiy shaxs?
9. Bir dona qovunni ko'rib, zor-zor yig'lagan, vatan ishq bilan yongan shoir va davlat arbobi?
10. O'zbek adabiy tilining asoschisi, she'riyat mulkining sultoni?

11. Davr zulmiga qalqon bo'lgan, Offoqxo'janing qurboni bo'lgan sargashta shoir?

12. Amir Nasrullo so'ndirgan she'riyat gulshanining guli?

13. "Figonkim gardishi davron ayirdi shaxsuvorimdan" deb boshlanuvchi misralar muallifi?

14. "Shoxnoma" asarining muallifi?

15. Osmonni charogon qilgan tole xurshidi?

16. "Tanobchilar" tanobin tortgan, sayohatchi sayyoh shoir?

17. "Men Vatanni bog' deb aytsam,  
Sen unda bitta gul,  
Men Vatanni ko'z deb aytsam,  
Bitta mujgon o'zbegin".

Ushbu misrlarda badiiy san'at unsurlarining qay biri qo'llangan?

18. Vatanni boy qiluvchi, ko'ragida tog' ko'targan kishi?

19. O'zlikni anglash, o'zlikni bilishga undagan ne'mat?

20. Buyuk yurt o'gli, mustaqillikning yaratuvchisi?

21. O'zbekni jahonga tanitgan milliy bosh kiyimi?

22. Qasidasin xalqqa bag'ishlagan

Oq-sutu, tuz hurmatin oqlagan,

O'zini sodiq o'glon deb atagan

O'zbekning bir farzandi. Kim?

His-tuyg'ularni, ayniqsa insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi o'qituvchi ishida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Voyaga yetib kelayotgan avlodning insonparvarlik ruhida tarbiyalash kelajagi buyuk bo'lgan O'zbekiston fuqarosining yuksak fazilatini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining dars o'tish jarayonida tushuntirishi natijasida O'rta Osiyo mutaffakirlarning hayotiga, ayniqsa, bolalik yillarini qiziqish bilan qaraydi. Insonparvarlik ruhida tarbiyalash bolaning xulq-atvorida aks etadi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan quyidagi mashg'ulotni tushuntirish, namuna uslublari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim pedagogik muammo ruhida tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarning butun faoliyati asosida amalga oshirishimiz lozim.

Bolalikda berilgan tarbiya, bolaning butun hayoti davomida abadiy yo'ldosh bo'lib qolaveradi.

Insondagi insonparvarlik — bu tabiat ato qilgan his, mol- dunyodan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan odamiylikdan ham iboratdir.

Shuni aytishimiz lozimki boladagi insonparvarlik uning odobi orqali amalga oshadi, ma'lumki har qanday odobli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar bolalar jamiyatimizning eng ishonchli kishilaridir. Ular bilan suhbatda bo'lish har qanday kishini ham qoniqtiradi. Lekin sholi kurmaksiz bo'lmaganidek, sovuq muomalali, o'zining tor ma'rifatini yoshlikdan o'ylaydigan «betimning qattig'i, jonimni huzuri» deydi ayrim yoshlar ham oramizda bor.

Bas shunday ekan, biz insonparvarlik tarbiyasini, odob- axloq mavzusidagi suhbatlarimizni - oilada va boshlang'ich maktablardan boshlab yo'lga qo'yaylik.

Maktablarda ota -onalar bilan birga alohida seminarlar va maslahatlar o`tkazib turish ham maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaga muhtoj oilalarga insonparvarlik va ma`naviyat sohiblari tez-tez borib tursa yoki boshlang'ich maktablarda haftaning ma`lum bir kunida suhbatlashuv kuni tashkil etilsa nur ustiga a`lo nur bo`lar edi.

Jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro u kim bo`lishidan qat`iy nazar, u xoh ishchi bo`lsin, xoh xizmatchi, xoh ilm tolibi bo`lsin, xoh murabbiy, xoh oila boshlig'i bo`lsin, xoh farzand insonparvarlik tarbiyasi uzluksiz olib borish ishida ishtirok etishi lozim. Bu jarayon bog'chada boshlanib maktab va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida ayniqsa faol amalga oshirilishi talab etilmoqda.

Shuni unutmasligimiz lozimki, Vatan va xalqning farovonligi uchun buyuk yangiliklar, kashfiyotlar yarata oladigan, uning o`tmishi, buguni va ertasini kafolatlay oladigan qudratli va zabardast farzandlarga aynan ana shu tarbiyachi, o`qituvchi, pedagoggina yagona tayanch va ishonch bo`la oladi. Bu narsa barcha boshlang'ich maktablarda pedagoglar uchun faxr va iftixor bo`lishi bilan birga yuksak mas`uliyat hamdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki bolalarni yoshlikdan boshlab insonparvarlik ruhida tarbiyalash biz o`qituvchilar, ota-onalar oldidagi mas`uliyatli va sharaflil vazifadir, chunki bolalarimiz mustaqil davlatimizning davomchilaridir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida 1992-yil 8- va 10-dekabrda so'zlagan nutq). T., «O'zbekiston», 1993.-B.18
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1X sessiyasida so'zlangan nutq.1997-yil, 29-avgust). T., «Sharq», 1997. .-B.12
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T., «Sharq», 1998. .-B.10
4. Karimov I.A. “Kamolot” yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda so'zlangan nutq. 2001-yil, yanvar). T., «O'zbekiston», 2001. .-B. 8
5. Karimov I.A. «Sog'lom avlod uchun» ordenini topshirish marosimida so'zlangan nutq. (1994-yil, 2-may). // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., «O'zbekiston», 1996. .-B.22
6. Karimov I.A. Kelajakka qat'iy ishonch bilan boqamiz (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil birinchi yarim yillik yakunlariga bag'ishlangan majlisida so'zlangan nutq. 1995-yil, 29-iyul). // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., «O'zbekiston», 1996. .-B.15
7. Karimov I.A. Sport birdamlik va totuvlikka chorlaydi (Toshkent 1 Markaziy Osiyo o'yinlari ochilishi marosimida so'zlangan nutq. 1995-yil, 2-sentyabr). // Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T., «O'zbekiston», 1996.-B.20.
8. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz (Sog'lom avlod Davlat dasturini tasdiqlashga bag'ishlangan majlisida so'zlangan nutq. 2000 yil). // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 1-jild. T., «O'zbekiston», 2000. .-B.23.
9. Karimov I.A.O'zbekiston “Mustaqillikka erishish ostonasida” T., «O'zbekiston», 2012. .-B.18.
10. Karimov I.A. «Sport – barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasi». (8- noyabr, 2005yil Oqsaroyda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida). // «Xalq

so`zi» gazetasi, 9-noyabr, 2005. .-B.24.

11. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: «O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`grisida». (27 may, 1999 yil, № 271). // «Sport» gazetasi, 28 may, 1999.-B.18.

12. O`zbekiston Respublikasining Qonuni: «Jismoniy tarbiya va sport to`grisida». (Yangi tahriri, 27 iyun, 2000 yil). // «Sport» gazetasi, 28 iyun, 2000.

13. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: «O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamgarmasi faoliyatini tashkil etish to`grisida». (31 oktyabr, 2002 yil, № 374). // «Xalq so`zi» gazetasi, 1 noyabr, 2002. .-B.14.

14. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`grisida»gi Qonuni, 1997.-B.5.

17. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O`zbekiston», 2010.- 80 b.

18. Karimov I.A.. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. T. Ma`naviyat. 2008.- 176 b.

19. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so`zlagan nutqi.-T.:Sharq, 1997.- B.3–19.

20. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O`zbekiston 2000. – 489 -509 b.

21. Karimov I.A.O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., «O`zbekis-ton, 2012.

22.,„Barkamol avlod orzusi” –T.: „Sharq”. 1999.

23.,„Soglom avlod bizning kelajagimiz”. – T.: „Ibn Sino”, 2000.

24.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O`zbekiston, 1992. – 46 b.

25.O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`grisida”gi qonuni //Ma`rifat g. – T., 1997. – 1 oktyabr’.

26.O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayorlash milliy dasturi //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: Sharq nashriyot - matbaa kontserni, 1997. - 31- 61- betlar

27.Abu Nasr Farobiy „Fozil odamlar shahri”. –T.: „Gofur Gulom”. 1993.

28.Abu Rayhon Beruniy „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. 1968.

29.Amir Temur. „Temur tuzuklari”. T.: „Gofur Gulom”. Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy. Al-jomi` as-saxih. qomuslar bosh tahririyati. T.: - 1997. (1-4 tom). 4 jildli saylama.

30.Abu Ali ibn Sino. “Tib qonunlari”. Uch jildlik saylanma. T.: Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – 1994.

31.Ahmad Yassaviy. “Hikmatlar”. T.: - 1990.

32..Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: Sharq nashriyoti, 1994 y.

33.Abdullayeva Q., Safarova R., Bikboeva N. Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasi //Boshlang'ich ta'lim, 6-son. –T.: 1998. – B. 2-9.

34.Abdullaeva Q., Safarova R. va b. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti //Boshlang'ich ta'limi, 6-son. -T.: – 1998. – B. 9-6.

35.Barotov M.U., Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni amalga oshirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. 2006. 38-39 betlar.

36.Baratov Sh. O'qituvchi shaxsini o'rganish usullari. -T.: O'qituvchi, 1995 yil. -52 b.

37.Baratov Akbar. Tabiatshunoslik. -T.: Sharq, 2011 yil. -52 b.

38.Grigoryants A.I. Atrofimizdagi olam. – 1 sinf uchun darslik. –T.: Cho'lpon, 2004. – 80 b.

39. Jo'raev A.I. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: O'qituvchi, 1994.
40. Musurmonova O. Oila ma'naviyat-milliy guruh. T.: O'qituvchi, 1999-2000b
41. Munavvarov A.K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 1996.-200 b.
42. Matchonov S., Sholalilov A., Gulomova X., Savriyev Sh., Dolimov. 4-sinf uchun «O'qish» kitobi T.: "Yangiyo'l poligraf servis.", 2007.
43. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.: Fan, 1994..
44. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. -T.: O'qituvchi, 1994.-112 b.
45. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 1995.
46. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyat va tarbiya masalalari. -T.: O'zbekiston, 1995.
47. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000.
48. Sog'lom avlod - bizning kelajagimiz. -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2000 y.
49. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. - T.: O'qituvchi, 1997. - 141 b..
1. 50. Shojalilov A., Toshmatova T., Matjanov S., Sariyev Sh. 4-sinf uchun «O'qish» kitobi. -T.: O'qituvchi. 2003.
51. Shodiev D., Safarova R. Asosiy parametrlar // Boshlang'ich ta'lim, 1995. - № 3-4. - B. 3-4.
2. 52. Umarova U., Hamroqulova R., Tojiboeva R. . 3-sinf uchun «O'qish» kitobi. -T.: O'zb. nashriyoti-matbaa ijodiy uyi 2012.
53. Kamolxo'jaev Sh. Mavzulararo aloqadorlik - o'qitish samaradorligini oshirish omili. Uzlaksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali. T. № 4. 2005. 3-bet.
54. Ochilova M. Ochilova N. O'qituvchi odobi. - O'qituvchi, 1993.-136 b

55. Popov .G.H. Oquvchining shaxsiy ishini tashkil etish. -T.: O`qituvchi, 1992.

56. Gafforova T., Shodmonov E., Mirzahakimova Z. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik. -T.: Sharq, 2012. – 108 b.

57. Gafforova T., Nurullaeva .Sh., Eshturdieva G. O`qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. -T.: Sharq, 2005. – 128 b.

58. Gulomov.R. Mirzaxamadova. Atrofimizdagi olam. – 2 sinf uchun darslik. – T.: Cho`lpon, 2012. – 80 b.

59. Goziev.E. Psixologiya. T.: O`qituvchi. 1994. – 224 b.

60. Hasanboeva O., Ne`matova A., Abdullaeva.Q., Raxmonbekova.S. Odobnoma: 1-4sinflar uchun o`qitish metodikasi. –N.: “Bilim nashr.”, 2003. 240b

61. Hasanboeva O., Ne`matova A., Ibragimova G. Odobnoma: 4-sinf uchun darslik. –T.: “O`ME Davlat ilmiy nashr.”, 2006.

62. Hasanboeva O., Inoyatova .M., Ne`matova.A. Odobnoma: 2-sinf uchun darslik. –T.: “O`ME Davlat ilmiy nashr.”, 2012.

63. Xoliqova.M., Inoyatova .M., Ergasheva.Sh. Odobnoma: 4-sinf uchun darslik. –T.: “Yangiyo`l poligraf servis.”, 2011.

[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.rek.uz](http://www.rek.uz)

[www.istedot.uz](http://www.istedot.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.google.uz](http://www.google.uz)

[www.doda.uz](http://www.doda.uz)

[www.sport.uz](http://www.sport.uz)

[www.ukorum.uz](http://www.ukorum.uz)

[www.ziyoUz.uz](http://www.ziyoUz.uz)

[www.ukk.uz](http://www.ukk.uz)

[www.matbuot.zn.uz](http://www.matbuot.zn.uz)

[www.kan.zn.uz](http://www.kan.zn.uz)

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent, "FAN" 2008 y.
2. Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboyeva O, Xolikberdiyev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 1998 i.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abu Xikmat G'azzoliy. Yanglishuvlaridan qutqaruvchi shaxs mash'ali. Turkiston – 1992-y.,-2 son.
2. Milliy maktab poydevorini yaratish yo'lida. Jamoa - Toshkent, 1990
3. Roziqov O.R. Og'ae'v S.Yu., Og'ae'v S.Yu., Maxmudova M.M., Azizov B.R. Didaktika T. Fan - 1997 i.
4. Mirkosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: "O'qituvchi", 1996 i.